

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025  
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Yoqubov, D.Sh.Sultonov, M.U.Maxmudov, A.Z.Rasuljonov, I.I.Zokirov</b>	
Kuzgi tunlam ( <i>Agrotis segetum</i> ) lichinkalari morfometrik o'lchamlarining ozuqa o'simligiga bog'liqligi .....	124
<b>A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov,</b>	
<b>B.J.Mavlanov, B.Y.Hamraliyev</b>	
Farg'ona viloyatida <i>Capparis spinosa</i> L. ning tabiiy resurslari .....	130
<b>A.B. Karimov, Sh.X. Xomidchonova</b>	
Morfologicheskie izmeneniya tkani prymoi kishki posle khimicheskikh vozdeystviy.....	139
<b>A.I.Iskandarov, G.S.Mirzayeva, M.O.Xudoyberdiyeva, D.M.Musaev, Sh.N.Nazarov,</b>	
<b>B.R.Xolmatov, M.N.Valiyeva</b>	
Haqiqiy qalqonli qandalalar (Pentatomidae) ayrim turlarining molekulyar genetik identifikatsiyasi.....	142
<b>A.A.Yoqubov, I.I.Zokirov</b>	
Tuproq tarkibining kuzgi tunlam ( <i>Agrotis segetum</i> ) g'umbagi hayotchanligi va kapalak chiqish darajasiga ta'siri .....	150
<b>M.T.Botirov, E.A.Ergashev</b>	
Kristallanish jarayoni va yoriqlar paydo bo'lishida albumin eritmalari konsentratsiyasining ta'siri .....	155
<b>F.Xolboev, B.Shodihev, F.Shodiyeva</b>	
O'zbekistonda Coraciiformes turkumi turlarining uchrash xususiyatlari va tarqalishi.....	160

---

QISHLOQ XO'JALIGI

<b>M.A.Avliyakulov, N.N.Yaxyoyeva</b>	
S-8286 g'oz'a navini egatlab va tomchilatib sug'orish me'yorlari .....	165

---

GEOGRAFIYA

<b>L.Z.Ibragimov, G.B.Barotova</b>	
Urbanizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishini o'rganishning ba'zi masalalari .....	170
<b>Sh.X.Boboyev</b>	
Samarqand viloyati agrosanoat klasterlarining iqtisodiy samaradorligini baholash .....	179
<b>T.N.Yarboboyev, K.Y.Qosimova</b>	
Kaliy ma'danlarini qazib olish va qayta ishlash obyektlarida atrof-muhitni muhofaza qilish mezonlari .....	189

---

ILMIY AXBOROT

<b>Z.Z.Aliyev, Y.M.Melixodjayev</b>	
Bolalarda tug'ma ixtizoz kasalligi va uning kelib chiqish sabablari.....	194
<b>A.E.Normatov, L.T.Yuldashev</b>	
Neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarni Eyxorniya yuksak suv o'simligi yordamida tozalash biotexnologiyasi (Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi misolida) .....	197



УО'К: 628.832.12.32

**NEFT MAHSULOTLARI BILAN IFLOSLANGAN OQAVA SUVLARNI EYXORNIYA  
YUKSAK SUV O'SIMLIGI YORDAMIDA TOZALASH BIOTECHNOLOGIYASI  
(Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi misolida)**

**БИОТЕХНОЛОГИЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД, ЗАГРЯЗНЕННЫХ  
НЕФТЕПРОДУКТАМИ, С ПОМОЩЬЮ ВЫСШЕГО ВОДНОГО РАСТЕНИЯ ЭЙХОРНИИ  
(На примере Ферганского нефтеперерабатывающего завода)**

**BIOTECHNOLOGY FOR PURIFYING WASTEWATER CONTAMINATED WITH  
PETROLEUM PRODUCTS USING THE AQUATIC PLANT EICHORNIA  
(Based on the example of the Fergana Oil Refinery)**

**Normatov Abdurahim Eminovich<sup>1</sup>** 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktoranti

**Yuldashev Laziz Tolipovich<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti, dotsent

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada oqava suvlarni yuksak suv o'simligi Eyxorniya (*Eichhornia crassipes Solms., Pontederiaceae*) yordamida tozalash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarining qisqacha tahlili xususida hamda Farg'ona viloyatida joylashgan Farg'ona NQIZ MCHJda ishlab chiqarish jarayonlarida neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarni 2 suv inshootida tozalanishi bulardan tashqari zavodda oqava suvlarni tozalash maqsadida o'r ganishlar uchun olingan namunalar tahlili, tahlil natijalarini to'g'risida ma'lumot berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье представлен краткий анализ исследований по очистке сточных вод с помощью высшего водного растения эйхорнии (*Eichhornia crassipes Solms., Pontederiaceae*), а также приведены сведения об анализе образцов, взятых для изучения процесса очистки сточных вод, загрязненных нефтью и нефтепродуктами, в производственных процессах на ООО "Ферганский НПЗ," расположенному в Ферганской области. Кроме того, представлены результаты анализа образцов, полученных с целью изучения очистки сточных вод на заводе.*

**Abstract**

*This article provides a brief analysis of research on wastewater treatment using the aquatic plant Eichornia (*Eichhornia crassipes Solms., Pontederiaceae*). It also includes information about the purification of wastewater contaminated with oil and petroleum products in two water treatment facilities at Fergana Refinery LLC, located in the Fergana region. Additionally, the article presents details on the analysis of samples collected for studying wastewater treatment at the plant and the results of these analyses.*

**Kalit so'zlar:** Eyxorniya (*Eichhornia crassipes Solms., Pontederiaceae*), Farg'ona NQIZ MCHJ, oqim, neft, neft mahsuloti, rivojanish, o'sish, suv inshooti, oqava suv.

**Ключевые слова:** Эйхорния (*Eichhornia crassipes Solms., Pontederiaceae*), Ферганский НПЗ ООО, поток, нефть, нефтепродукт, разведение, рост, водное сооружение, сточные воды

**Key words:** *Eichornia (*Eichhornia crassipes Solms., Pontederiaceae*), Fergana Oil Refinery LLC, flow, oil, petroleum product, development, growth, water facility, wastewater.*

**KIRISH**

Bugungi kunda dunyo miyisosida suv resurslaridan mukammal foydalanish, suv havzalarining turli chiqindilar, yod moddalar bilan ifloslanishini oldini olish va ishlab chiqarishning tobora kengayishi natijasida toza suvlarning qayta ifloslanish darajasi ortib borishi bilan bog'liq bo'lgan ekologik muammolar atrof-muhitga va aholi salomatligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun, tabiiy va sun'iy suv havzalariga aholi turar joylaridan, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalaridan chiqadigan ishlashda bo'lgan suvlar tozalanmasdan bevosita oqava suvlarga aylanib bormoqda. Shu o'rinda, chiqindi suvlarni samarali tozalash usullarini yanada takomillashtirish hamda bunday suvlardan samarali foydalanish tizimini yaratish va uni amaliyatga joriy etish bo'yicha katta innovatsion tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Neftning muhim xususiyatlari zichligi, oltingugurt miqdori, fraksion tarkibi, yopishqoqligi, suv tarkibi, xlorli tuzlar, mexanik aralashmalari kabi xususiyatlar kiradi. Neftning zichligi. Odatda nefning zichligi to'rt hil: yengil – 0,800-0,839 g/sm<sup>3</sup>, o'rtacha – 0,840-0,879 g/sm<sup>3</sup>, og'ir – 0,880-0,920 g/sm<sup>3</sup>, juda og'ir – 0,920 g/sm<sup>3</sup> zichligiga ega neft bo'ladi.

Neft tarkibidagi suvlar katta bosim bilan chiqayotgan neft quduqlarida uchraydi va tarkibida xlorli va ayrim hollarda sulfatli tuzlar suvda erigan eritma holida bo'ladi.

Og'ir neftlarni chuqur qayta ishlashga moslashtirilgan "Farg'ona NQIZ" MCHJ 1959 yilda foydalanishga kiritilgan bo'lib, Farg'ona shahrida joylashgan. Umumiy maydoni uzunligi 10140 metrni tashkil qilib, 370,9 ga hududni o'z ichiga oladi.

### **ADABIYOTLAR TAHЛИLI**

S.B.Bo'riyev, A.M.Qobilov, L.T.Yuldoshovlarning tadqiqotlari oqava suvlarni hamda neftni qazib oluvchi va neftni qayta ishlovchi sanoat korxonalarini chiqindi suvlarni tozalash usullari, neftni qazib olish va qayta ishlash juda ko'p miqdorda chiqindi suv hosil bo'lishiga olib kelishi isbotlangan. Ushbu sanoatning doimiy ravishdi o'sib borishi yanada ham ko'p miqdorda chiqindi suv hosil bo'lishiga sabab bo'lmoxda. Neft sanoatida hosil bo'layotgan chiqindi suv tarkibini asosiy qismini qatlamlararo suvlar tashkil qiladi.

"Farg'ona NQIZ" MCHJ uglevodorod xomashyosini yillik 6,45 million tonnadan ko'proq loyiha quvvati bilan (neft va gazokondensat), shuningdek, och va to'q neft (benzin, dizel, yoqilg'isi, aviabenzin, kerosin, mazut, suyultirilgan gaz, oltingugurt, fenol va nefras, va neft moylari, koks, parafin) mahsulotlarini qayta ishlashni amalga oshiradi. "Farg'ona NQIZ" MCHJ mahsulotlari Respublikaning ichki iste'molchilariga va eksportga chiqarish uchun mo'ljallangan.

Hozirgi kunda 39 texnologik qurilmalar mavjud bo'lib, ulardan 19 tadan ortiq qurilmalar sutkalik ishlash jarayonida, qolganlari konservatsiyaga to'xtatilgan hamda joriy va mukammal ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Zavodning suv va gaz ta'minoti sehiba neft va neft mahsulotlari bilan zararlangan sanoat oqava suvlarni tozalash inshooti va texnologik qurilmalarini aylanma suv bilan uzuksiz ta'minlashga, texnik suv iste'molini va oqava suvlar tashlamasini kamaytirishga mo'ljallangan 1-2 suv inshootlari (bloki) mavjud.

Xalqaro miyosda ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida sanoat korxonalari (neft va gazni qayta ishlash, kanopni qayta ishlash, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, biokimyo, yog'-moy korxonalari, pillachilik korxonalari, to'qimachilik sanoati) va qishloq xo'jaligi korxonalari (qoramollarni bo'rdoqiga boqish komplekslari, parrandachilik) va kommunal-xo'jalik oqava suvlarni organo-mineral moddalar, og'ir metallar, sianidlar, neft mahsulotlaridan hamda patogen mikroorganizmlardan yuksak suv o'simliklari – pistiya, eyxorniya va azolla yordamida biologik tozalashning yangi samarali biotexnologiyasi yaratilgan.

Yuksak suv o'simligi bo'lgan eyxorniya ko'chatlarini neftni qayta ishlovchi "Farg'ona NQIZ" MCHJda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida neft va neft mahsulotlari qayta ishlash natijasida ifloslangan oqava suvlarni biologik tozalash maqsadida 2 suv inshootidan olingan suv namunalarda o'sitirish yo'li bilan o'rganildi. Ilmiy tadqiqotning obyekti sifatida eyxorniya yuksak suv o'simligi ko'chatlari olindi.

Eyxorniya – suv yuzasida erkin suzuvchi yuksak o'simlik bo'lib, evolyutsiya jarayonida barg bandlarining pastki qismidaa g'ovak to'qimalardan iborat shish paydo bo'lgan. Bu havo bilan to'lgan xonalari o'simlikning suvda muallaq turib o'sishiga va suzib yurishiga hamda suzib yurishi hisobiga ozuqa muhitini o'zgartirishga imkon beradi.

### **TAJRIBA VA NATIJALAR**

Eyxorniya o'simligi ko'chatlari moslashgan ozuqali suv muhitida juda yuqori o'sish tezligiga ega, tez ko'payib, suv yuzasini tez o'rab, yashil, gullaganida esa binafsha gilam hosil qiladi, bu esa bir hafta ichida egallagan maydonni osongina ikki barobarga oshirishi mumkin.

## ILMIY AXBOROT



1-rasm. Eyxorniya (*Eichhornia crassipes*  
Gmel.) suvda.

Zavod xududida 2 aylanma suv inshootidagi neft mahsulotlarining miqdori past kotsentratsiyali oqava suvlardan namunalar tayyorlangan xolda eyxorniya o'simligi ko'chatlarini ekish orqali tajriba o'tkazish rejalashtirildi.

Namuna sifatida 100 litrlik 3 dona yelim idishlar olinib, kuzatish, o'rganish hamda samaradorligini taqqoslash maqsadida 3 xil usuldagagi tajribalardan foydalanildi. Eyxorniya o'simligi ko'chatlarini sun'iy suv idishlardan foydalangan xolda uch turdag'i ozuqa muhitiga ekildi. Har bir usuldagagi idishlaridan eyxorniya o'simligi ko'chatlari solishdan oldin Farg'on'a viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining Atrof-muhit monitoringi iqlim o'zgarishi moslashish va gidrometeorologiya sohasini muvofiqlantirish (Tahliliy laboratoriya) bo'limida tahlil qilish uchun namunalar olindi. Tahlil natijalari ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan solishtirma jadvalga qayd etildi.

1-usulda 100 litr 100% (2 suv inshootida ishlatishda bo'lgan oqava suvidan) neft mahsulotlari bilan ifoslangan oqava suv olindi.

2-usulda 75 (75 %) litr neft mahsulotlari bilan ifoslangan oqava suviga va 25 (25 %) litr toza ichimlik suvi qo'shildi, jami ozuqa muhit 100 litr hajmga yetdi.

3-usulda 50 litr (50%) neft mahsulotlari bilan ifoslangan oqava suv va 50 litr (50 %) toza ichimlik suvi qo'shildi, jami ozuqa muhit 100 litr hajmga yetdi.

2,3-rasmlar. 3 xil usuldagagi namunalar.



Namuna idishlardagi oqava suvlarga eyxorniya o'simligi ko'chatlarini solishdan oldin tarozida tortib olindi va ishlab chiqilgan solishtirma jadvalga qayd etildi. Havo harorati  $37^{\circ}\text{C}$ , Havoning nisbiy namlik 32%, namuna uchun olingan oqava suvlar harorati  $26^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etdi.

Ushbu neft mahsulotlari bilan zararlangan 3 usuldagagi namuna oqava suvlarda eyxorniya o'simligi ko'chatlarining taqqoslash, morfologik kuzatuvlar, biomassalarini elektron tarozida tortish orqali o'sish dinamikasini muntazam 10 sutka davomida kuzatib borildi.

Birinchi sutkada havo harorati  $36^{\circ}\text{C}$ , Havoning nisbiy namlik 31%, namuna uchun olingan oqava suvlar harorati  $26^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etdi.

O'ninchи sutkada birinchi, ikkinchi va uchunchi namunadagi eyxorniya ko'chatlari morfologik kuzatuvlar jarayonida oqava suvlar ozuqa muhitiga moslasha olishi, barglari va tuplaridagi o'sish dinamikasi yaqqol kuzatildi. Havo harorati bulutli bo'lgani uchun  $37\text{-}38^{\circ}\text{C}$ , nisbiy namlik 34 %, namuna uchun olingan oqava suvlar harorati  $26^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etdi.

Yuksak suv o'simligi eyxorniyaning tajriba natijalariga ko'ra mahsuldorligini aniqlashda T.T. Taubayev, V.M. Katanskaya va o'simliklarni fenologik kuzatishda I.N. Beydeman tavsiyalaridan foydalanildi. Oqava suvlarda yuksak suv o'simliklarining o'sishi va rivojlanishi, hosil bo'lgan biomassasi tarozida o'lchash yo'li bilan aniqlangan. Oqava suvlarning fizik, kimyoviy tarkibi o'simliklar ekkangacha va ekkandan keyingi tarkibi, tahlillari umumgidrokimyoviy Y.Y. Lure va N.S. Strogonov uslublari asosida aniqlangan.

Eyxorniya o'simligi ko'chatlari 10 sutka davomida o'stirilgan 3-usuldagagi namuna oqava suvlari Farg'ona viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining Atrof muhit monitoringi iqlim o'zgarishi moslashish va gidrometeorologiya sohasini muvofiqlantirish (Tahliliy laboratoriya) bo'limida tahlil qilinib, tahlil natijalariga ko'ra ifloslangan suvlarni tozalash xususiyatlari, tozalash darajasi bo'yicha olingan natijalar keltirildi. Suniy suv idishlarni bo'yi 53 smni tashkil qilib, 51 sm o'lchamgacha o'simlik uchun 102 litr ozuqa muhit yaratilgan. O'simlik ko'chatlarini ekishdan oldin yaratilgan ozuqa muhitidan laboratoriya tahlili uchun 2 litrdan namunalar olinganida qolgan 100 litr ozuqa muhitigi o'simlik ko'chatlari ekilgan.



4-5- rasmlar. Suv hajmini o'lchash ishlari olib borilmoqda.

Birinchi usuldagagi oqava suv hidi 5 ballga teng bo'ldi, rangi kulrang ko'rinishda, harorati 23 °C<sup>0</sup>, erimaydigan cho'kma miqdori 183,0 mg/dm<sup>3</sup>, aktiv reaksiya pH – 8,6 tashkil qildi. Quruq quyqa 2505 mg/dm<sup>3</sup> ni tashkil qildi, Azot nitritniy (N-NO2) 0,33 mg/dm<sup>3</sup> ni, umumi fosfor (PO4) 2,8 mg/dm<sup>3</sup> ni, neft mahsulotlari 10,5 mg/dm<sup>3</sup> ni, kislorodning kimyoviy istemoli (XRK) 605 mg/dm<sup>3</sup> ni, fonol 0,07 mg/dm<sup>3</sup> ni, yog'-moylar 1,5 mg/dm<sup>3</sup> ni tashkil etdi.

Oqava suvlari tarkibidagi neft va neft mahsulotlarining zichligi suvgaga nisbatan yengil bo'lganligi sababli namuna suvlaring osti va ustida bir xil qiymat bo'lishi ta'minlash maqsadida namuna olishdan oldin uzlusiz 1-2 daqqa davomida aralashtirilib turildi. O'simlik biomassasi 1000 gr li elektron tarozisida tortilganida, 690 gr ni tashkil etdi.

Ikkinci usuldagagi namuna idishdagi oqava suv hidi 4 ballga teng bo'ldi, rangi kulrang ko'rinishda, harorati 23 °C<sup>0</sup>, erimaydigan cho'kma miqdori 167,0 mg/dm<sup>3</sup>, aktiv reaksiya pH – 8,4 tashkil qildi. Quruq quyqa 2390 mg/dm<sup>3</sup> ni tashkil qildi, Azot nitritniy (N-NO2) 0,32 mg/dm<sup>3</sup> ni, umumi fosfor (PO4) 2,7 mg/dm<sup>3</sup> ni, neft mahsulotlari 8,2 mg/dm<sup>3</sup> ni, kislorodning kimyoviy istemoli (XRK) 560,0 mg/dm<sup>3</sup> ni, fonol 0,07 mg/dm<sup>3</sup> ni, yog'-moylar 1,3 mg/dm<sup>3</sup> ni tashkil etdi.

Oqava suv namuna olishdan oldin uzlusiz 1-2 daqqa davomida aralashtirilib turildi. O'simlik biomassasi 1000 gr li elektron tarozisida tortilganida, 660 gr ni tashkil etdi.

Uchinchi usuldagagi namuna idishdagi oqava suv hidi 4 ballga teng bo'ldi. Rangi kulrang ko'rinishda, harorati 23 °C<sup>0</sup>, erimaydigan cho'kma miqdori 162,0 mg/dm<sup>3</sup>, aktiv reaksiya pH – 8,2 tashkil qildi. Quruq quyqa 2270 mg/dm<sup>3</sup> ni tashkil qildi. Azot nitritniy (N-NO2) 0,31 mg/dm<sup>3</sup> ni,

## ILMIY AXBOROT

umumiyl fosfor ( $\text{PO}_4$ )  $2,6 \text{ mg/dm}^3$  ni, neft mahsulotlari  $6,0 \text{ mg/dm}^3$  ni, kislороднинг kimyoviy istemoli (XRK)  $533,0 \text{ mg/dm}^3$  ni, fonol  $0,07 \text{ mg/dm}^3$  ni, yog'-moylar  $1,2 \text{ mg/dm}^3$  ni tashkil etdi.

O'simlik biomassasi 1000 gr li elektron tarozisida tortilganida, 708 gr ni tashkil etdi.

Birinchi usuldagagi oqava suv hidi 0 ballga teng bo'ldi, rangi tiniq, rangsiz ko'rinishda, harorati  $23 \text{ }^{\circ}\text{C}$ , erimaydigan cho'kma miqdori  $103,0 \text{ mg/dm}^3$ , aktiv reaksiya pH – 8,0 tashkil qildi. Quruq quyqa  $1805 \text{ mg/dm}^3$  ni tashkil qildi, Azot nitritniy ( $\text{N-NO}_2$ )  $0,09 \text{ mg/dm}^3$  ni, umumiyl fosfor ( $\text{PO}_4$ )  $0,7 \text{ mg/dm}^3$  ni, neft mahsulotlari  $0,47 \text{ mg/dm}^3$  ni, kislороднинг kimyoviy istemoli (XRK)  $401 \text{ mg/dm}^3$  ni, fonol  $0,01 \text{ mg/dm}^3$  ni, yog'-moylar  $0,3 \text{ mg/dm}^3$  ni tashkil etdi.

O'simlik biomassasi 1000 gr li elektron tarozisida tortilganida, 708 gr ni tashkil etdi.

Ikkinci usuldagagi oqava suv hidi 0 ballga teng bo'ldi, rangi tiniq, rangsiz ko'rinishda, harorati  $23 \text{ }^{\circ}\text{C}$ , erimaydigan cho'kma miqdori  $101,0 \text{ mg/dm}^3$ , aktiv reaksiya pH – 8,0 tashkil qildi. Quruq quyqa  $1801 \text{ mg/dm}^3$  ni tashkil qildi, Azot nitritniy ( $\text{N-NO}_2$ )  $0,09 \text{ mg/dm}^3$  ni, umumiyl fosfor ( $\text{PO}_4$ )  $0,6 \text{ mg/dm}^3$  ni, neft mahsulotlari  $0,45 \text{ mg/dm}^3$  ni, kislороднинг kimyoviy istemoli (XRK)  $395 \text{ mg/dm}^3$  ni, fonol  $0,01 \text{ mg/dm}^3$  ni, yog'-moylar  $0,3 \text{ mg/dm}^3$  ni tashkil etdi.

O'simlik biomassasi 1000 gr li elektron tarozisida tortilganida, 681 gr ni tashkil etdi.

Uchinchi usuldagagi oqava suv hidi 0 ballga teng bo'ldi. Rangi tiniq, rangsiz ko'rinishda, harorati  $23 \text{ }^{\circ}\text{C}$ , erimaydigan cho'kma miqdori  $99,0 \text{ mg/dm}^3$ , aktiv reaksiya pH – 8,0 tashkil qildi. Quruq quyqa  $1790 \text{ mg/dm}^3$  ni tashkil qildi, Azot nitritniy ( $\text{N-NO}_2$ )  $0,09 \text{ mg/dm}^3$  ni, umumiyl fosfor ( $\text{PO}_4$ )  $0,5 \text{ mg/dm}^3$  ni, neft mahsulotlari  $0,44 \text{ mg/dm}^3$  ni, kislороднинг kimyoviy istemoli (XPK)  $392 \text{ mg/dm}^3$  ni, fenol  $0,01 \text{ mg/dm}^3$  ni, yog'-moylar  $0,3 \text{ mg/dm}^3$  ni tashkil etdi.

O'simlik biomassasi 1000 gr li elektron tarozisida tortilganida, 679 gr ni tashkil etdi.

## 1-jadval

**Neftni qayta ishslash zavodi oqava suvlari fizik-kimyoviy tarkibining Eyxorniya o'simligi ko'chatlarini ekkangacha va ekkandan keyingi laboratoriya tahlili ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar	O'chov birligi	Tajribaga qadar:			Tajribadan keyin:		
			1 namuna 100 % oqava suv, jami 100 litr	2 namuna % oqava suv, 25% toza suv, jami 100 litr	2 namuna 50 % oqava suv, 50% toza suv, jami 100 litr	1 namuna 100 % oqava suv, jami 100 litr	2 namuna % oqava suv, 25% toza suv, jami 100 litr	2 namuna 50 % oqava suv, 50% toza suv, jami 100 litr
1.	Hidi	ball	5	4	4	0	0	0
2.	Rangi	əp.c	kulrang	kulrang	kulrang	Tiniq, rangsiz	Tiniq, rangsiz	Tiniq, rangsiz
3.	Temperatura (Harorat) $\text{C}^0$	əрадүс	23	23	23	23	23	23
4.	Erimaydigan cho'kmalar	$\text{Mg}/\text{dm}^3$	183,0	167,0	162,0	103,0	101,0	99,0
5.	Aktiv reaksiya (Rh)	m.evv	8,6	8,4	8,2	8,0	8,0	8,0
6.	Quruq quyqa	$\text{Mg}/\text{dm}^3$	2505	2390	2270	1805	1801	1790
7.	Azot nitritniy ( $\text{N-NO}_2$ )	$\text{Mg}/\text{dm}^3$	0,33	0,32	0,31	0,09	0,09	0,09
8.	Umumiyl fosfor ( $\text{PO}_4$ )	$\text{Mg}/\text{dm}^3$	2,8	2,7	2,6	0,7	0,6	0,5
9.	Neft mahsulotlari	$\text{Mg}/\text{dm}^3$	10,5	8,2	6,0	0,47	0,45	0,44
10.	Kislороднинг kimyoviy istemoli (XPK)	$\text{Mg}/\text{dm}^3$	605	560	533	401	395	392
11.	Fenol	$\text{Mg}/\text{dm}^3$	0,07	0,07	0,07	0,01	0,01	0,01
12.	Yog'-moy	$\text{Mg}/\text{dm}^3$	1,5	1,3	1,2	0,3	0,3	0,3
13.	O'simlik biomassasi, gr	əрамм	690±1	660±1	652±1	708±1	681±1	679±1

Neftni qayta ishslash zavodi oqava suvlarining uch xil usuldagagi tajribadan keyingi fizik-kimyoviy tarkibi tahlillari xarakterlovchi ko'rsatkichlari har xil darajada o'zgarishi kuzatildi. Asosiyisi

oqava suvdagi neft va neft mahsulotlarining miqdori belgilangan amaldagi kommunal-ekologik normativ (amaldagi kommunal-ekologik normativ 1 mg/dm<sup>3</sup>) dan ancha pastladi. Eyxorniya uch xil usulda tayyorlangan suniy suv idishdagi oqava suvning tarkibi o'simlik ko'chatlari oqava suvining neft va neft mahsulotlari bo'lgan ozuqa muhitiga moslashib, o'sishi hamda rivojlanishi natijasida suvni harorati pasayib, tiniqlashdi bundan tashqari kerosin hidi butunlay yo'qoldi.

O'tkazilgan tajribalarda eyxorniya o'simlik ko'chatlarining oqava suvlar tarkibidagi organo-mineral moddalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanganda, suv tarkibidagi aksariyat anorganik va zararli organik birikmalar miqdorini pasaytirishda ushbu o'simliklikni samaradorlik darajasi yuqoriligi kuzatildi.

Bunda asosiysi neft va neft mahsulotlari miqdori oqava suv tarkibida kamayib, texnik ishlatishga yoroqli suv ko'rsatkichlari darajasiga yetdi.

### XULOSA

Zavodning 5-sexiga qarashli 2 suv inshootidagi ishlab chiqarish jarayonlarida neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvida eyxorniya o'simligi ko'chatlari 3 xil usuldagagi namunada 10 sutka davomida ekip o'stirilganida neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlar tarkibida bo'lgan, neft va neft mahsulotlarining miqdori kamayib, "kerosin" hidi butunlay yo'qoladi va oqava suvlarni to'liq biologik tozalashi mumkinligi qayd etildi.

Tadqiqotlar natijalari tahliliga ko'ra, 1 usuldagagi namunada dastlab neft va neft mahsulotlarning miqdori oqava suvda 10,05 mg/dm<sup>3</sup> ga teng bo'ldi, eyxorniya o'simligi ko'chatlari 10 sutka o'stirilganidan keyin ushbu ko'rsatkich 0,47 mg/dm<sup>3</sup> ni tashkil qildi.

O'simlik yordamida oqava suvdagi neft va neft mahsulotlarning miqdori 9,58 mg/dm<sup>3</sup> ga kamaydi.

2 usuldagagi namunada dastlab neft va neft mahsulotlarning miqdori oqava suvda 8,2 mg/dm<sup>3</sup> ga teng bo'ldi, eyxorniya o'simligi ko'chatlari 10 sutka o'stirilganidan keyin ushbu ko'rsatkich 0,45 mg/dm<sup>3</sup> ni tashkil qildi. O'simlik yordamida oqava suvdagi neft va neft mahsulotlarning miqdori 7,75 mg/dm<sup>3</sup> ga kamaydi.

3 usuldagagi namunada dastlab neft va neft mahsulotlarning miqdori oqava suvda 6,0 mg/dm<sup>3</sup> ga teng bo'ldi, eyxorniya o'simligi ko'chatlari 10 sutka o'stirilganidan keyin ushbu ko'rsatkich 0,44 mg/dm<sup>3</sup> ni tashkil qildi.

O'simlik yordamida oqava suvdagi neft va neft mahsulotlarning miqdori 5,56 mg/dm<sup>3</sup> ga kamaydi. Uch usuldagagi neft va neft mahsulotlari bilan zararlangan oqava suvlardagi ozuqa muhitiga eyxorniya ko'chatlari moslashib, o'sib, gullab yangi kurtaklarni xosil qildi.

Yuqoridagi tajriba tahlillari ko'rsatkichlari korxonaning mas'ul xodimlariga taqdim etildi va korxonaning ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, 1,2 usulda amalga oshirilgan tajriba hamda tajriba tahlillari asosida zavodning 2 suv inshooti oqava suvlarni sovitish, qattiqligi, ishqoriylik, xlоридлик darajalarini meyyorashtirish bulardan tashqari oqava suvdagi neft va neft mahsulotlarini tozalash maqsadida suv inshootida yangi texnologiya sifatida ishlab chiqarish jaryonlariga qo'shildi.

Eyxorniya o'simligi yordamida neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan suvlarni tozalash juda qulay va arzon hisoblanib, ushbu o'simlikni o'stirish uchun qo'shimcha ozuqa muhiti talab qilinmaydi, zavodlarda oqava suvlarni tozalashga amalda sarflanayotgan mablag', ishchi kuchi, elektroyenergiya, tozalash inshooti, dezinfeksiyalovchi vositalar va qo'shimcha reagent moddalar tejab qolinadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buriyev S., Rashidov N., Xayitov Y., Yuldashev L. Ishlab chikarish korxonalar oqava suvida yuksak suv o'simliklarini ko'paytirish. O'zbekiston florasi bioxilma-xilligi va undan oqilona foydalanish muammolari. Res. Konfe. – Samarqand, 2011.
2. Bo'riyev S.B., Qobilov A.M. Qora-qir ko'lida fitoplanktonlar va ularni baliqchilikda qo'llash // Mikroskopik suvo'tlari va yuksak suv o'simliklarni ko'paytirish, ularni xalq xo'jaligida qo'llash: Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Buxoro, 2018. – B. 62-64.
3. Yuldashev L.T., Bo'riyev S.B. Oqava suvlarda yuksak suv o'simliklarini ko'paytirish biotexnologiyasi // Oqava suvlarni biologik uslubda tozalashning biotexnologiyasi. – Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro, 2018. – B. 112-124.
4. Bo'riyev S.B., Qobilov A.M. Qora-qir ko'lida yuksak suv o'simliklarining tarqalishi // Mikroskopik suvo'tlari va yuksak suv o'simliklarni ko'paytirish, ularni xalq xo'jaligida qo'llash: Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Buxoro, 2018. – B. 92-94.
5. Bo'riyev S.B., Qobilov A.M. Qora-qir ko'lida yuksak suv o'simliklarining tarqalishi // Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg'on, 2018. – B. 151-152.

ILMIY AXBOROT

6. D.E.Maxmudova, M.A.Raxmonova "Maishiy oqova suvlarni tozalash texnologiyasini takomillashtirish", "Qurilishda innovatsion texnologiyalar" Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallar to'plami. Toshkent TAQI – 2017, 160-161 betlar.